

TILSHUNOSLIKDA XUSUSIY DISKURS TADQIQI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15412838>

Qulmanova Mohinur Anvar qizi

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada tilshunoslikda diskurs masalasi hamda diskurs tushunchasi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar

Tilshunoslik, taraqqiyot, jamiyat, til, madaniyat, ingvopragmatika, muammo, tadqiq.

Abstract

This scientific article presents ideas and observations about the issue of discourse in linguistics and the concept of discourse.

Keywords

Linguistics, development, society, language, culture, ingvopragmatics, problem, research.

Аннотация

В данной научной статье представлены мысли и комментарии по проблеме дискурса в лингвистике и концепции дискурса.

Ключевые слова

Лингвистика, развитие, общество, язык, культура, ингвопрагматика, проблема, исследование.

O'zbek an'anaviy tilshunosligi zaminida shakllangan, taraqqiyot yo'lini tanlagan va belgilangan maqsad asosidagi vazifalarini muvaffaqiyatli ado etgan o'zbek substansial tilshunosligining hozirgi holati fanimizda yangi yo'nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. Ular diqqat-markazida "lison-nutq" masalasini turli daraja va ko'rinishda namoyon qiluvchi "til va jamiyat", "til va madaniyat", "til va shaxs", "milliy til va milliy tafakkur", "til va sun'iy intellekt" kabi substansial asoslarda hal qilinuvchi muammolar turadi. Jahon tilshunosligida XX asr so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan fanning yangi paradigmalari – lingvopragmatika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvokogni-tologiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi ilg'or fan yo'nalishlari aynan shu

masalalar tadqiqi bilan shug'ullanmoqda. Istiqlool natijasi o'laroq, o'zbek tilshunosligi tom ma'noda mustaqil milliy fan sifatida o'zini namoyon qildi. Eng muhimi, tilimizning milliy tabiatiga to'laqonli ilmiy-nazariy baho berildi. Qo'lga kiritilgan nazariy yutuqlar til qurilishini o'rganishdan uning voqelanish xususiyatlarining keng qamrovli tadqiqiga o'tish uchun katta imkoniyatdir. Bu esa o'zbek tilini yangi va zamonaviy, ilg'or va samarador tadqiq usullari asosida tekshirishni kun tartibiga qo'ymoqda.

Jahon tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri tilning muayyan qatlamlarida uchraydigan xususiy diskurslarning lisoniy, ijtimoiy, madaniy, antropologik, semiotik belgilarini o'rganishdan iborat. Shuningdek, adabiyot hamda ijtimoiy-maishiy sohalarda uchraydigan diskursning qo'llanish doirasi, lingvopragmatik, kognitiv xususiyatlari keng o'rganilayotgan masalalardan hisoblanadi. Ta'limiy diskurs - muayyan kommunikativ vaziyat bilan belgilanadigan xususiyatlarga ega bo'ladi. Ta'limiy diskursda o'qituvchi va o'quvchi fikriy mundariyasi, uning nutqiy vaziyat bilan bog'liqligi, kognitiv, pragmatik va sotsiopragmatik xoslanishi real ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ta'limiy diskursning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish terminlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish, millat hayoti, dunyoqarashi va madaniyatidagi o'rnini belgilashda ahamiyatlidir.

O'qitish hamda muloqotda qo'llaniladigan ta'limiy diskurs - bu pedagogik vaziyat yoki pedagogik maqsad bilan boshqariladi. Ta'limiy nutqning maqsadlari, usullari va vositalari, qaysi muassasaga mansubligidan qat'i nazar, o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga mos keladi.

Diskurs tushunchasi lotincha "discursus" - "mulohaza yuritish", "oldinga va orqaga yugurish", "harakat", "aylanish", "suhbat" yoki frantsuzcha "Discours" - "nutq" degan ma'nolarga borib taqaladi. "Diskurs" atamasi ko'rib chiqilayotgan muammoning asosiy tushunchasi bo'lganligi sababli, uning ta'rifiga turlicha yondashuvlar ustida to'xtalib o'tishni lozim deb bilamiz. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu konsepsiya mashhurligiga qaramay, uning "diskurs" dan foydalanishning barcha holatlarini qamrab oladigan umumiy tan olingan va aniq tarifi hali shakllantirilgan emas. Bu haqiqatni shu bilan izohlash mumkinki, nutq fanlararo tadqiqot ob'yekti bo'lib, bir qancha chegaraviy ilmiy yo'nalishlar: nazariy tilshunoslik, falsafa va mantiq, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, semiotika, tarjima nazariyasi va boshqalar tutashgan joyda joylashgan

Dunyo tilshunosligida diskurs muammosi bilan bog'liq til faktlarini o'rganish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, bugungi kunda diskurs va uni o'rganish ko'pchilik tilshunoslarning diqqatini tortmoqda. Diskurs bilan bog'liq keng qamrovli izlanishlar olib

borilmoqda. Ta'limiy diskursning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish, terminlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish, millat hayoti, dunyoqarashi va adabiyotidagi o'rnini belgilashda yordam beradi. Ikki til imkoniyatlarini o'rganish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima jarayonida yuzaga keladigan fikr ifodasi, uning shakliy tuzilishi, ichki nutqning imkoniyatlarini ifodalash va aniq strukturaviy xossalarini yoritib berishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu yo'nalish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish va mavjud muammolarga yechim topish dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar diskurs va diskursiv tahlil jahon tilshunosligida turli olim va tilshunoslar tomonida o'rganilgan va mazkur atamaga turli yondashilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda diskursga berilgan ta'riflar turlidir. Diskursda T.A. van Deyk faqatgina muloqotning og'zaki ko'rinishini ta'kidlaydi va uni "matn" yoki "suhbat" deb ataydi. Mazkur holatda diskurs resipiyentlar bilan interpryetsiya qilinadigan muloqot jarayonining tugallangan yoki davom etuvchi "mahsuloti" sifatida qaraladi, ya'ni umumiy qaralganda, diskurs – bu so'zlashuv jarayonining yozma yoki og'zaki so'zlashuv mahsulidir. O'qituvchining ro'li asosan didaktik kommunikatsiya jarayoni orqali yuzaga chiqadi. Bunday diskurs jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida quyidagi vazifalar bajariladi.

Ta'limiy diskursning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri ma'ruzalar sanaladi. Ma'ruza – o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan ta'limiy nutq bo'lib, unda nafaqat o'qituvchidan nutqiy tayyorgarlik talab etiladi. Balki o'rganuvchilar ham eshitish va ma'lumotni ong ostida qabul qilib qayta ishlashi va eslab qolishi talab etiladi. Ma'ruzalar tegishli fan yoki ilm yo'nalishining xarakter xususiyatidan kelib chiqib ilmiy kontentga ega bo'ladi va aksariyat hollarda lingvomadaniy leksika ishlatilmasligi bilan dolzarbdur. Ta'limiy diskurs muayyan kommunikativ vaziyat bilan belgilanadigan xususiyatlarga ega bo'ladi va shu sababli mavhum tushunchadan ustun turadi. U o'qituvchi va talabalarning kommunikativ o'zaro ta'sirga yo'naltirilgan semiotik (ya'ni lingvistik va xulq-atvor) strategiyalari bilan belgilanadi, bunda muloqot doimo suhbat mavzusiga mos keladigan yoki unga hamroh bo'lgan belgilar va ma'nolarning almashinuvi sifatida belgilanadi. Darslikdagi pedagogik nutqni ta'lim muhitiga kiritilgan dunyoni tasvirlash va dunyoni bilishning maxsus institutsional (rasmiy pedagogik) usuli sifatida ta'riflash mumkin, bu yerda o'qitishning o'ziga xos kommunikativ maqsadlari va ijtimoiy rollari atrofida talqin etiladi. Ta'limiy diskursning xususiyatlarini aniqlash uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan manba matnining maqsadi, ishtirokchilari, xronotoposlari va turi / janri, nutqning og'zaki qismi hisobga olinishi kerak. Agar nutq vaziyatga singdirilgan matn bo'lsa ("hayotga singib ketgan nutq"), ta'limiy nutq ta'lim jarayoni va uning ichidagi o'zaro ta'sir nutqidir.

Bu nutq turini o'rganish va dunyoni bilish jarayonida dunyoni og'zaki taqdim etish usuli va yangi jamiyat a'zolarining sotsializatsiyasiga qaratilgan nutq faoliyati sifatida aniqlash mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda tilshunoslikning jadal rivojlanayotgan yangi sohalari qatorida lingvopragmatikaning tadqiq obyekti va predmetini to'g'ri idrok etish hamda shu asosda uning tadqiq metodologiyasini tanlash katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Raupova L.R. Dialogik diskursdagi nopredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri...diss. – Toshkent, 2012. – C. 220.
2. Gulyamova Sh. Monologik diskursdagi qo'shma gaplarning sotsiopragmatik talqini (o'zbek va ingliz tillaridagi materiallar asosida) : filol. f.f. d-ri...diss. – Toshkent, 2022.
3. Stubbs M. Discourse Analysis: The Sociolinguistic Analysis of Natural Language. Oxford Blackwell, 1983
4. Bobojonova Sh.Y. Diskurs, ta'limiy diskurs va nutqning tarkibiy qismlari va ularning xususiyatlari// Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi-11/4-2022 ISSN 2091-573 X <http://mamun.uz/uz/page/56>
5. Арутюнова Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике // ИАН ОЛЯ. Серия литературы и языка. – 1973. Т. 32. Вып. 1. – С. 325-331 Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 312.